

ABDULLA QAHHORNING “YILLAR” HIKOYASIGA NAZAR

Abdurahmonova Zarnigor G‘iyosboy qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi O‘zbekiston,
Toshkent e-mail: zarnigora363@gmail.com*

Anotatsiya: Ushbu maqolada vaqtning shafqatsizligi va o‘tkinchiligi haqida yozilgan “Yillar” hikoyasi tahlil qilinadi. Yozuvchi bu asarida vaqt tufayli yuzaga keladigan jamiyatdagi o‘zgarishlar va inson taqdiridagi ijtimoiy muhitning ta‘sirini chuqur ifodalaydi. Maqola davomida asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar tahlili va mazmuni yoritiladi. Ayniqsa, adibning realistik yondashuvi va davr ruhini aks ettirish mahorati keng yoritib beriladi. Hikoyada qo‘llanilgan metaforalar, turli yoshdagi qahramonlar va ularning hikoyadagi o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: umr, vaqt, Hojimisiroj, Orziqul, nevara

Abstract: This article analyzes the story “Years” written about the cruelty and transience of time. In this work, the writer deeply expresses the changes in society caused by time and the influence of the social environment on human destiny. In the course of the article, the ideological and artistic features of the work, the analysis of the images and the content will be covered. In particular, the writer's realistic approach and ability to reflect the spirit of the time are widely covered. It talks about the metaphors used in the story, the characters of different ages and their place in the story.

Key words: life, time, Hajimisiroch, Orzikul, grandson

Bolaligi qo‘qon va uning atroflarida o‘tgan yozuvchi Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentyabrda tavallud topgan. Uning “Sarob”, “Sinchalik”, “O‘tmishdan ertaklar” kabi mashhur asarlari barchaga tanish. A. Qahhor doimo millatni o‘yladi, o‘sha davrda bo‘lib turgan voqealarni qog‘ozga tushirish orqali insonlarni fikrlashga chorladi. “Abdulla Qahhor bosib o‘tgan hayot yo‘li ham, ijod yo‘li ham vijdon yo‘li edi. U so‘nggi nafasigacha millat dardi bilan yashadi. Shuning uchun ham unga og‘ir bo‘lgan. Mamlakatda toza fikrlaydigan odamlar kamayib ketgani, shular ham iqtidorini yangi haqiqat izlashga emas, eskilarini takrorlashga sarf aylaganiga qaramay, Abdulla Qahhor doimo ozod fikr, yangi haqiqatlar uchun kurashgan

— yolg‘izlanish, tanqidu ta‘qiblarni pisand qilmasdan kurashgan. Abdulla Qahhorning ijodiy nafasidan nomardlik, har qanday g‘irromlik titragan, tubanlik o‘zini panaga tortgan. Unga tish qayraganlar esa yuzlariga niqob tortishga majbur bo‘lishgan. Uning borligi millatning ham davlati, ham sarvati, ham shavkati bo‘lgan. Mubolag‘asiz shunday!”



“Yillar” hikoyasi inson hayotining o‘tkinchiligini va vaqtning inson taqdirini qay darajada o‘zgartirishi mukinligini aks ettiradi. Undagi bosh qahramonlar Hojimirsiroj, Orziqul va uning nevarasi o‘rtasidagi munosabatlar hayot va vaqt o‘rtasidagi muvozanatni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Hojimirsiroj obrazi o‘z umri davomida ko‘p narsalarga erishgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan o‘zining o‘zligini his qiladi.

Bunday voqealar orqali Abdulla Qahhor boylik va qudratning vaqt oldida o‘jiz ekanini, insonning faqatgina ma’naviy boyligi bilan yodda qolishi mumkinligini ko‘rsatadi. Asarda yosh bola, o‘rta yoshdagi inson va katta yoshdagi insonlar qahramon qilib olinganning sababi shundaki, yillar o‘tar ekan o‘z davrining eng bilimli, eng boy yoki hurmatga sazovor insonlari ham yosh avlodga qarab havas qiladi. Ular bizni o‘tmish, bugun va kelajak haqida o‘ylab ko‘rishga majbur qiladi.

Bu o‘tayotgan yillar insonning boyligini, mansabini inobatga olmay, shafqatsiz tarzda o‘taveradi. Shunday ekan, epigrafda yozilgan singari “O‘tdi umrim, voh darig‘...”, - deb umr yo‘liga qarab, “voh” demaslik uchun ham, inson o‘z hayotini boshqalarning gap so‘ziga e’tibor bermay yashab o‘tishi lozim. Hikoyada ham Hojimirsiroj birovlarning fikriga ko‘p e’tibor beradi. Agar unga boshqalarning fikri qiziq bo‘lmaganda edi, u bolakayni qulog‘idan tortmagan va uni adabini berib qo‘yishni xohlamagan bo‘lar edi. Shunday ekan boshqalarning fikriga e’tibor berish, inson fikrlarning izdan chiqishiga sabab bo‘ladi. Zero, Paolo Koeloning ta’kidlashicha, “Boshqalar sen haqingda nima deb o‘ylayotgani haqida qayg‘uraversang, o‘z hayotingni yashay olmayсан!”


Hikoyadagi nevara obrazi yangi avlod umidini aks ettiradi. U yosh, umid va imkoniyatlar bilan to‘la, vaqtning shavqatsizligidan bexabar, o‘z umrini yashab, fikrini erkin aytayotgan avlod timsoli hisoblanadi. Nevara xarakteri kam yoritilgan bo‘lsa ham, uning borligi hayot davom etishini va yangi avlod eski avlodning tajribasidan saboq olib rivojlanishini bildirin kelgan. A. Qahhor o‘z hikoyasi orqali vaqtning inson hayotidagi o‘rni va yosh o‘rtasidagi fikrlar haqida chuqur ma’naviy fikrlarni ilgari suradi. Asardagi turli xil obrazlar hamda ularning o‘zaro munosabatlari hikoyaga insoniylik, ma’naviy o‘sish va hayot mazmunini anglash kabi ma’nolarni olib kiradi.

Shunday qilib, “Yillar” hikoyasi o‘zining badiiy yuksakligi va g‘oyaviy mazmuni bilan adabiy merosimizda alohida o‘rin egallaydi, insoniyatning doimiy izlanishlari, ma’naviy erkinligi va jamiyatdagi o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabatini chuqur tasvirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qahhorov A. Tanlangan hikoyalar. - Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.





2. Ibrohim Haqqul. Abdulla Qahhor jasorati & Ozod Sharafiddinov. Fikr erkinligi — zarur ehtiyoj. Ibrohim Haqqulga ochiq xat & Abdulla Qahhor tavalludining 115 yilligiga bag'ishlangan 'Bugun' radiodasturi. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-abdulla-qahhor-jasorati-esse.html>
[2.12.2024]

